



Yevropa ittifoqining moliyaviy  
ko'magi bilan ta'minlandi



unicef 

Har bir bola uchun

**SURXONDARYO VILOYATIDA INKLYUZIV TA'LIM, IJTIMOYIY XIZMATLAR VA  
HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH**

**UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA  
UNICEF TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN LOYIHA**



# **BOLALARNING FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA SUDLARDAGI HUQUQLARI**

Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyati bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

## MURAKKAB HUQUQIY TUSHUNCHALARNING SODDA TA'RIFLARI:

**Fuqarolik ishlari bo'yicha sud** – bir shaxs o'z huquqlari boshqa shaxs tomonidan buzilgan yoki hurmat qilinmagan deb hisoblanganda va u sud-dan bunday nizoning hal etilishini istasa, huquqiy nizolarni ko'rish joyi hi-soblanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda **bolaning mehnat qilish, ta'lim olish, ijtimoiy himoyasi, ota-ona qaramog'i va himoyasida bo'lish haqidagi hamda boshqa nizolari hal etiladi hamda buzilgan huquqlari tiklanadi.**

Fuqarolik ishlari bo'yicha respublika darajasida (Oliy sudning bir qismi), viloyat darajasida va tumanlararo, tuman va shahar fuqarolik sudlari bor.

1

### Da'vogar

— bu o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilgan shaxs.

2

### Javobgar

— bu o'ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan talab taqdim etilgan shaxs.

**3**

### **Da'vo arizasi**

davogar tomonidan o'zining huquqlarini himoya qilish va tiklashni so'rab murojaat yozilgan ariza.

**4**

### **Vasiylik**

— o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, tarbiya va ta'lim berish, ularning turli huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**5**

### **Homiylik**

— o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning turli huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**6**

### **Qonuniy vakil**

— muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchilar (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar).

## USHBU QO'LLANMA

voyaga yetmaganlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardagi huquqlari haqida juda kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Quyida voyaga yetmaganlar qanday masalalar yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda qatnashishi mumkinligi ko'rsatilgan:



ota-onalarning ajrashishi bilan bog'liq nizolar;



ota-ona ajrashganidan so'ng farzandi ota-onaning qaysi biri bilan yashashni tanlash bo'yicha nizoda;



ota-onalik huquqidan mahrum qilish (cheklash)da;



mehnat huquqlari buzil-  
ganda va shunga o'xshash  
boshqa nizolarda.

## **BOLALAR FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA SUDLARGA MUSTAQIL RAVISHDA O'ZLARI MUROJAAT QILISHLARI MUMKIN**



**To'liq muomala layoqati shaxs 18 yoshga to'lganda paydo bo'ladi. Shunga ko'ra, shaxs 18 yoshga to'lganda fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin. Qonunlarimizda, istisnolar mavjud, ya'ni o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs (bola) quyidagi masalalarda mustaqil ravishda o'zi sudga murojaat qilishi mumkin:**

- 1** ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki yetarli darajada bajarmaganda;
- 2** bolaning ota-onasi o'zlarining huquqlarini suiiste'mol qilganda, ya'ni noto'g'ri foydalanganda;
- 3** ota-onaning biridan yoki ikkalasidan aliment undirishda;
- 4** farzandlikka olishni bekor qilishda (o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan (bola)).

Bundan tashqari, o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs biron bir tashkilotda mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasining, farzandlikka olgan odamlarning yoki homiysining roziligini olgan holda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb e'tirof etiladi. Ya'ni bunday bola yoshi katta odamlar foydalanadigan huquqlardan foydalana olishi mumkin bo'ladi. To'la muomalaga layoqatli bo'lish "**emansipatsiya**" deyiladi.



To'la muomalaga layoqatli bo'lish uchun ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi asosida vasiylik va homiylik organining qarori kerak bo'ladi. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sudning qarori kerak bo'ladi.

Kimlar bolaning nomidan uning huquqlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik sudlariga murojaat qilishlari mumkinligidan xabardormisiz?

#### QUYIDA SHULAR HAQIDA MA'LUMOT BERILADI:

O'n sakkiz yoshga to'lmagan bolalarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari — ya'ni ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi.

Bolalar yosh bo'lganliklari sabablari o'zlarining huquqlarini himoya qilishni bilishmaydi yoki bilsalarda ularni himoya qilishda qiynaladilar. Voyaga yetmaganlar o'zlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etadi.

## PROKUROR



## Bolalarni himoya qilish shu'balari



Har bir tuman (shaharlar)da bolalarni himoya qilish shu'balari bor.



Bolalarni himoya qilish shu'balarining asosiy vazifasi quyidagilardir:

✔ bolalarning (voyaga yetmaganlarning) huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

✔ ota-onasidan ayrilib qolgan va zo'ravonlikka uchragan bolalarning huquqlarini himoya qiladi va ularga amaliy yordam ko'rsatadi;

✔ oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan ajralib qolgan bolalarning yashash sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini nazorat qiladi;

✔ yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan ajralib qolgan bolalarning uy-joyi bor yoki yo'qligini nazorat qiladi;

✔ chet davlatlarda yashayotgan va ota-onasi qaramog'idan ajralib qolgan bolalarni O'zbekistonga qaytarishda qatnashadi;

✔ vasiy va homiylik bilan bog'liq masalalarda yordam beradi.





## OLIIY MAJLISNING BOLA HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (BOLALAR OMBUDSMANI) HAQIDA ESHITGANMISIZ?

Bolalar ombudsmani yuqori lavozimdagi shaxs bo'lib, u bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bolaning nomidan sudga arizalar va da'volar bilan murojaat qiladi va bolaning huquqlarini shu orqali himoya qiladi.




Bola o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishi uchun sudga da'vo arizasi yozishi kerak.



Telefoningizni ishlatib quyidagi havola yoki QR kod orqali bolalar uchun bepul ishlab chiqilgan da'vo arizalari va boshqa hujjatlarni to'ldirib, yuklab olishingiz mumkin:

<https://yurxizmat.uz/uz/category/for-kids>



## ENDI BOLANING FUQAROLIK SUDLARIDAGI HUQUQLARI HAQIDA GAPLASHAMIZ

### Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi




Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga va aytishga haqlidir. Bola sudlarda qatnashayotgan paytida ham sud unga o'z fikrini bildirish imkonini berishi kerak. Qaror qabul qilishda har doim bolaning manfaatlari va fikrlari hisobga olinishi va eshitalishi lozim.

Ota-ona bir biridan ajrashishayotgan bo'lsa va bola otasi bilan yoki onasi bilan yashashni tanlamoqchi bo'lsa, sud boladan ota-onasidan qay biri bilan yashash istagi borligini so'raydi. Bundan tashqari sudya har qanday masalada bolaning fikrlarini va javoblarini eshitadi va ularni har doim inobatga oladi.

Sudya bolaning bergan javoblarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi. Istalgan yoshdagi bola o'z xohishiga ko'ra sudda ko'rilgan ish bo'yicha o'z fikrini bildirish huquqiga egadir.



Siz sudyaga ishonishingiz va sudya sizga o'z fikringizni bildirish imkoniyatini berganida, sudyaga zarur deb bilgan hamma narsani aytib berishingiz kerak. Chunki, siz bergan ma'lumotlar sudya uchun juda muhim bo'lib, sudya siz bergan javoblarni eshitib nizolarni hal qiladi.



**O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq, quyidagi masalalarni hal qilishda 10 yoshga to'lgan bolaning roziligi talab qilinadi:**

1. bolaning ismi, familyasi yoki ota ismi;
2. ota-onalik huquqining tiklanishi;
3. bolani farandlikka olishda;
4. farandlikka olishni bekor qilishda;
5. bolani boshqa oilaga berishda.

## BOLALARNING MA'LUMOT OLISH HUQUQLARI

Bola sudlarda qatnashayotganda o'ziga tegishli har qanday masala haqida ma'lumot olish huquqiga egadir.



Shuningdek, bola sud majlisidagi o'zining roli, sudda qatnashayotgan boshqa odamlarning roli va huquqlari to'g'risida bilish huquqiga ega. Shu bilan bir qatorda, bola sud chiqargan qarorlardan xabardor bo'lish huquqiga ega. Ma'lumot bolaga sodda va tushunarli tilda berilishi kerak.

Sud qaror qabul qilayotganda bolaning eng yaxshi manfaatlarini hisobga olishi va adolatli qaror qabul qilishi kerak.

Bola sudlarda qatnashayotgan paytda, u bilan birga qonuniy vakili ham birga bo'lish huquqiga ega.

Bundan tashqari, sudlarda bolaga yordam sifatida pedagog yoki psixologlar ham chaqiriladi. Ular ham bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladi.



Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalarini amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.



### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: [delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)

Veб-sayt: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](http://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Veб-sayt: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Veб-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>